Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

2026-yil 3-sentabr, payshanba,
77 (24.257)-son

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Zavqsiz ish - shavqsiz ish

Maktablarda “Birinchi qo‘ng‘iroq”

2-sentabrdan respublikamizdagi barcha maktab, akademik litsey va texnikumlarda yangi o‘quv yili boshlandi. Muassasalarda “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostida “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari bo‘lib o‘tdi.



Tadbirlarda Oliy Majlis Senati a’zolari, rahbarlar va ota-onalar qatnashdi.

Xususan, viloyat hokimi Adiz Boboyev Samarqand shahridagi ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan 1-davlat umumta’lim maktabidagi tadbirda ishtirok etib, Prezidentimizning maktab o‘quvchilari va ustoz-murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigini o‘qib eshittirdi. So‘ngra yoshlarni puxta bilim olish va xorijiy tillarni o‘rganishga chaqirib, ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish hamda farzandlar ta’lim-tarbiyasida ota-onalar mas’uliyatini yanada oshirish muhimligi haqida gapirdi. Maktab o‘quvchilarini bilim olishga undab, ularning kelgusi o‘qishlariga omad tiladi.

Bayram tadbiridan so‘ng yangi o‘quv yilining an’anasiga ko‘ra, barcha sinflarda ilk darslar yurtimiz mustaqilligining mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan “Mustaqillik darslari” bilan boshlandi.

Viloyatimizdagi Oliy Majlis Senati a’zolari – Maryam Niyozova Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 1-IDUM, Rustam Xolmurodov Samarqand shahridagi 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Shavkat Sharipov Samarqand shahridagi 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabida “Mustaqillik soati” darslarini o‘tib berdi. Shuningdek, boshqa rahbarlar ham “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari va “Mustaqillik darslari”da ishtirok etdi.

2026-2027-o‘quv yilida viloyatimizdagi maktablarga 92 ming 93 nafar bola 1-sinfga qabul qilindi. Ularga “Prezident sovg‘alari” topshirildi.

***

Yangi o‘quv yili dars jarayonlari oliy ta’lim muassasalarida 1-bosqich talabalari uchun 7-sentabrdan, 2-bosqich va undan yuqori kurs talabalari uchun 14-sentabrdan boshlanadi.



Islom Karimov yod etildi

Kecha Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni munosabati bilan marosim o‘tkazildi.

Viloyat hokimi A.Boboyev va viloyat faollari Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, Islom Karimov maqbarasini ziyorat qildi. Qur’on oyatlari tilovat etilib, duo o‘qildi.

Islom Karimov O‘zbekiston mustaqilligini e’lon qilib, davlat boshqaruvini yangidan qurgan, tariximizning murakkab va og‘ir davrlarida barqarorlikni saqlab, xalqimiz manfaatlarini ta’minlagan buyuk shaxs.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Birinchi Prezidentimiz xotirasi abadiylashtirilib, Islom Karimov tug‘ilgan kun va vafot etgan sana har yili yod etiladi. Turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladi.

Yurtimizdagi markaziy ko‘chalar, yirik inshootlarga Islom Karimov nomi berilgan. Toshkentda Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasi tashkil qilindi, Samarqandda maqbara barpo etildi, poytaxtimiz va yirik shaharlarda uning haykallari o‘rnatildi.

Marosim qatnashchilari Samarqand shahridagi Islom Karimov haykali poyiga gullar qo‘ydilar. Birinchi Prezidentimizning mustaqil O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlari yodga olindi.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Eshqobil SHUKUR, shoir:

- Hamma insoniy tuyg‘ular zamirida oriyat yotadi.

Istiqlolning 35 yilligiga:

Yangi bino va zamonaviy obyektlar

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan viloyatimizda bir qator yangi bino va inshootlar foydalanishga topshirildi.
“35 yillikka 35 bino” loyihasi doirasida viloyatdagi 35 ta mahalla binosi yangidan qurilib, qayta ta’mirlandi. Jumladan, Narpay tumanidagi sakkizta - Muqimiy, Chorbog‘, Tepa, Tortuvli, Qoziyoqli, Olti o‘g‘il, Ipak yo‘li, Narpay mahallalarining yangi binolari zamonaviy talablar asosida jihozlanib, fuqarolar bilan ishlash, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ijtimoiy masalalarni hal etish va mahalladagi hamjihatlikni yanada mustahkamlash uchun zarur sharoitlar yaratildi.



Urgut tumanida 15 dan ziyod yangi obyektning foydalanishga topshirilishi hudud aholisi uchun bayram sovg‘asi bo‘ldi. Birgina Bahrin mahallasidagi 21-oilaviy poliklinika eski binosi o‘rnida kreativ bog‘, 120 o‘rinli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda nuroniylar choyxonasi barpo etildi.

Bu yerda Bahrin, Kenagas, Dehqonobod, Yuqori Sanchiqul, Nisbot, Qaynarbuloq, Ipak yo‘li, Qorabuloq va Beshkon mahallalaridagi 14 ming 600 nafardan ortiq yoshlar uchun ta’lim olish, zamonaviy kasblarni egallash va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

- Davlatimiz rahbarining Urgut tumaniga tashrifi hamda Prezident Administratsiyasi rahbarining ushbu hududda olib borgan o‘rganishlari natijasida avariya holatida bo‘lgan eski shifoxona o‘rnida barcha qulayliklarga ega yangi bino, zamonaviy mahalla markazi barpo etildi, - deydi mazkur obyektlar ochilishida ishtirok etgan viloyat hokimi Adiz Boboyev. - Shuningdek, yil yakuniga qadar tumanda yana 156 ta infrastruktura obyekti qurilib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi mahallalarda aholi uchun zamonaviy va qulay muhit yaratish, infratuzilmani yaxshilash hamda hududni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishtixon tumanida umumiy qiymati 1 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etadigan, zamonaviy talablar asosida qayta rekonstruksiya qilingan 100 o‘rinli gimnastika zali foydalanishga topshirildi. Oqdaryo tumanida esa “Tashabbusli budjet” mablag‘lari asosida “Alpomish” stadioni qayta rekonstruksiya qilinib, o‘yingohda basketbol va vorkaut maydonchasi ham qurildi.

Kattaqo‘rg‘on shahrida yoshlar uchun zamonaviy imkoniyatlarni o‘zida jamlagan yoshlar markazi foydalanishga topshirildi. Markazda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqish va iste’dodlarini rivojlantirish, kasb-hunar o‘rganishi, turli ta’lim va ijodiy loyihalarda ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Bayram arafasida Nurobod tumanidagi Mehnatkash va Sariko‘l mahallalarida zamonaviy oilaviy poliklinikalar o‘z faoliyatini boshladi. Mehnatkash mahallasidagi tibbiyot muassasasi 3 ming nafardan ortiq, Sariko‘ldagi yangi maskan esa 4 ming nafardan ziyod aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Tumanning Sazag‘on mahallasidagi 11- hamda Sariko‘l mahallasidagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktablari hududida zamonaviy sport zallari barpo etildi.

F.RO‘ZIBOYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

E’tirof

Eng qiyini – qizlarni sportda ushlab qolish

Samarqandda badiiy gimnastika haqida gap ketganda albatta, Yelena Aslanovani tilga olishadi. Zero, qariyb ellik yillik faoliyati davomida u o‘nga yaqin jahon chempioni hamda murabbiylarning butun bir avlodini tarbiyaladi. Bugungi kunda viloyatdagi badiiy gimnastika bo‘yicha mutaxassislar uning shogirdlari. Ulug‘ bayram arafasida Yelena Aslanovaning xizmatlari e’tirof etilib, u «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi» faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

42 yillik rasmiy ish staji davomida u oddiy murabbiylikdan viloyat badiiy gimnastika bo‘yicha terma jamoasining bosh murabbiyligigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Bugungi kunda Yelena Yurevna viloyat gimnastikaga ixtisoslashtirilgan maktabining bosh murabbiyi bo‘lib ishlamoqda.

U 59 yoshida ham o‘rganishda davom etmoqda.

- Viloyatdagi deyarli barcha murabbiylar mening shogirdlarim, - deydi Yelena Aslanova. - Biz birgalikda, ahil jamoa bo‘lib ishlaymiz. Ba’zida ular menga nimanidir maslahat berib turishadi. Men ularning maslahatlarini mamnuniyat bilan qabul qilaman. Qizlarim bilan juda yaxshi, ishonchli munosabatlar shakllangan va allaqachon «o‘qituvchi — o‘quvchi» formatidan chiqib, hamkasblar o‘rtasidagi munosabatga aylangan.



Elena Yurevna sha’niga iliq so‘zlarni uning har bir shogirdidan eshitish mumkin. Ko‘pchilik erishgan yutuqlarini uning xizmati ekanini tan oladi. Y.Aslanova shogirdlarining bugungi kunda o‘z shogirdlari bor va ular ham murabbiyga aylanishgan.

Murabbiylik faoliyati yillarida Yelena Yurevna 38 nafar sport ustasini tarbiyaladi. Ulardan to‘rt nafari xalqaro miqyosdagi sport ustasi bo‘ldi. Uning mashhur shogirdlari orasida Maftuna Shamsiyeva, Nuriniso Usmanova, Taxmina Ikromova, Amaliya Axmedova va Vilana Savadyanlar bor.

Shogirdlaridan qaysi biri bilan ishlash eng qiyin bo‘lgani haqidagi savolga u tabassum bilan Taxmina Ikromovaning nomini tilga oladi.

- Taxminaning o‘ziga xos xarakteri bor, - ta’kidlaydi murabbiy. - Agar u nimanidir xohlamasa, uni majburlashning iloji yo‘q. Soatlab u bilan gaplashib, bu eng avvalo, o‘zi uchun zarurligini tushuntirishga to‘g‘ri kelardi. Birinchi mashg‘ulotlardanoq Taxminada badiiy gimnastika bo‘yicha jahon yulduzi bo‘lish uchun iqtidor borligini his qilganman.

Suhbatni davom ettirar ekan, Yelena Yurevna murabbiy ishidagi eng qiyin narsa yangi boshlagan sportchilar bilan shug‘ullanish emas, balki ulg‘aygan qizni sportda ushlab qolish ekanini ta’kidlaydi.

- O‘smirlik yoshida ularda xarakter yorqin namoyon bo‘la boshlaydi va murabbiyning tanbehini juda og‘ir qabul qilishadi, — deydi u. — Bunday paytlarda murabbiy ruhshunosga aylanishi, u yoki bu tanbehning muhimligini yumshoq, bildirmasdan izohlab berishi kerak. Vaqt o‘tishi bilan bu davr o‘tadi va sportchi yana odatiy mashg‘ulot o‘zaniga qaytadi.

Elena Aslanova ko‘p yillik mehnatlari uchun «Do‘stlik» (2012-yil) va II darajali «Sog‘lom avlod uchun» (2022-yil) ordenlari bilan taqdirlangan. «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi» faxriy unvoni u uchun ayniqsa qadrli.

Murabbiyga erishilgan yutuqlarda to‘xtab qolmaslikni tilab qolamiz. Zero, oldinda gimnastikada o‘z yo‘lini endigina boshlayotgan ko‘plab yosh sportchilar kutmoqda.

Malika ABAYDULINA.

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz
@zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

Tadbirkor ham qonunga rioya qilishi kerak

Zarafshon

Bugun iqtisodiy taraqqiyot haqida so‘z ketganda avvalo, raqamlar, investitsiyalar, yangi korxonalar va ish o‘rinlari haqida gapiramiz. Ammo iqtisodiy o‘sishning ortida yana bir muhim omil bor — bu tadbirkorning erkin harakat qilishi, tashabbus ko‘rsatishi va o‘z g‘oyasini amaliyotga tez olib chiqishi uchun yaratilgan muhitdir.



QONUNCHILIKDAGI QO‘SHIMCHALAR

tadbirkorlik muhitini

QANDAY O‘ZGARTIRADI?

Shu ma’noda Oliy Majlis Senatining 18-yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan qonunlar mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ularda bir qarashda turli masalalar - litsenziyalash, soliq munosabatlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarni normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasiga jalb qilish kabi yo‘nalishlar qamrab olingan. Aslida esa ularni birlashtirib turgan yagona maqsad bor: biznes uchun ortiqcha to‘siqlarni kamaytirish va tadbirkorning huquqiy himoyasini kuchaytirish.

Ayniqsa, “Biznesga litsenziyasiz kirish” maxsus rejimi joriy etilishi tadbirkorlikni boshlash falsafasida muhim o‘zgarish yasaydi. Yangi tartib ayrim faoliyat turlari bilan uch oygacha litsenziya yoki ruxsatnomasiz shug‘ullanish imkonini beradi. Buning uchun tadbirkor elektron shaklda vakolatli organni xabardor qilishi kifoya.

Bu mexanizmni oddiy misol bilan tushuntirish mumkin. Tadbirkorda muayyan biznes g‘oyasi bor, ammo u mazkur faoliyatning bozordagi talabini, xarajatlarini va iqtisodiy samaradorligini oldindan to‘liq baholay olmasligi mumkin. Ilgarigi yondashuvda u avval litsenziya yoki ruxsatnoma bilan bog‘liq jarayonlarni o‘tishi, vaqt va mablag‘ sarflashiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, yangi institut unga faoliyatini sinov tariqasida boshlash imkonini beradi. Ya’ni davlat tadbirkorga “avval harakat qil, keyin imkoniyatingni bahola” degan ishonchni bildirmoqda.

Bu kichik biznes uchun ayniqsa muhim. Chunki yirik kompaniya uchun ma’lum bir ma’muriy jarayonga sarflangan vaqt katta muammo bo‘lmasligi mumkin. Ammo yangi ish boshlayotgan tadbirkor uchun bir necha hafta yoki bir necha oylik kechikishning o‘zi biznes g‘oyasining amalga oshmay qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat qarorlarini muhokama qilishdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartishlar ham shu mantiqning davomidir. Agar yangi normativ-huquqiy hujjat tadbirkor zimmasiga yangi majburiyat, talab, taqiq yoki cheklov yuklasa, bunday hujjat loyihasi tadbirkorlar va ularning birlashmalari ishtirokida muhokama qilinishi belgilanmoqda.

Bu – juda muhim tamoyil. Chunki biznesga ta’sir qiladigan qarorni qabul qilishdan oldin uning amaliyotda qanday ishlashini aynan tadbirkorning o‘zi yaxshi biladi. Qonun ijodkorligida “biznes haqida biznesning ishtirokisiz qaror qabul qilmaslik” yondashuvi qarorlarning hayotiyligini oshiradi.

Bundan tashqari, yashil texnologiyalar, turizm, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy tadbirkorlik va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun subsidiyalar berish, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga molik, innovatsion loyihalarni davlat grantlari asosida moliyalashtirishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda yana bir muhim masala nazoratning adolatli va mutanosib bo‘lishidir. Shu nuqtai nazardan bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish bilan bog‘liq yangi mexanizmlar tadbirkorlar uchun muhim kafolat yaratadi.

Agar soliq to‘lovchi soliq organi qaroriga e’tiroz bildirmasa, operatsiyalarni to‘xtatib turish soliq organining qarori asosida amalga oshiriladi. Agar tadbirkor e’tiroz bildirsa, masala sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, huquqbuzarlik bartaraf etilgan yoki sud cheklov qo‘llashni rad etgan hollarda bank hisobvaraqlariga qo‘yilgan cheklovlarni tezkor bekor qilish mexanizmi mustahkamlanmoqda.

Bu o‘zgarishlarning mohiyati davlat nazoratini bekor qilish emas, balki uni aniq qoidalar asosida amalga oshirishdir. Tadbirkor ham qonunga rioya qilishi kerak, davlat organi ham o‘z vakolatini aniq huquqiy chegaralarda amalga oshirishi shart.

Umuman, tadbirkorga eng avvalo, barqaror qoida kerak. U ertaga qaysi talab o‘zgarishini emas, o‘z biznesini qanday rivojlantirishni o‘ylashi lozim. Shuning uchun biznesga litsenziyasiz kirish, tadbirkorlarni qonun ijodkorligi jarayoniga jalb etish, davlat grantlari va subsidiyalari uchun huquqiy asos yaratish, nazorat yukini kamaytirish kabi choralar bir-biridan alohida emas, yagona iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

18-yalpi majlisda ko‘rib chiqilgan qonunlarning eng muhim jihati ham shunda: ular tadbirkorlikka faqat imtiyoz berish nuqtai nazaridan emas, balki ishonch, mas’uliyat va aniq huquqiy kafolatlar nuqtai nazaridan yondashmoqda.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

MUSTAQILLIK va milliy tafakkur renessansi

Mustaqillik — taqvimdagi oddiy sana emas. U xalqning tarixiy xotirasi, o‘zligini anglash va o‘z kelajagini o‘zi belgilash huquqidir.



DAVLAT MUSTAQILLIGIDAN TAFAKKUR MUSTAQILLIGIGACHA

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi bizni faqat o‘tgan yillarni sarhisob qilishga emas, istiqlolning bugungi mazmuni haqida o‘ylashga ham undaydi.

1991-yilda biz davlat mustaqilligiga erishdik. Endi esa oldimizda davlat mustaqilligini tafakkur mustaqilligi bilan mustahkamlash vazifasi turibdi.

Bugungi dunyoda mamlakatlar o‘rtasidagi asosiy raqobat hudud va tabiiy boyliklardan ko‘ra bilim, texnologiya, innovatsiya va inson tafakkuri maydoniga ko‘chmoqda. Demak, mustaqillikning zamonaviy mezoni ham o‘zgarib bormoqda.

Savol endi faqat «Biz mustaqil davlatmizmi?» shaklida emas, balki «Biz mustaqil fikrlay olamizmi? Yangi bilim yarata olamizmi? Dunyo bilan teng fikrlashyapmizmi?» tarzida qo‘yilishi kerak.

Mana shu savollar bugungi avlod oldidagi tarixiy vazifani belgilaydi.

YANGILANISH VA INSON OMILI

Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarni ana shu nuqtai nazardan baholash, menimcha, muhim.

Ta’lim va ilm-fan, yoshlar, zamonaviy kasblar, raqamlashtirish, innovatsiya, madaniyat va inson manfaatiga qaratilayotgan e’tibor jamiyat hayotidagi yangilanishlarning muhim yo‘nalishlariga aylanmoqda.

Bu jarayonlarning xalqimizga manzur bo‘layotgan jihati shundaki, o‘zgarishlar inson hayotiga daxldor bo‘lmoqda.

Ota-ona farzandining ta’limidagi imkoniyatni ko‘radi.

Yoshlar o‘z qobiliyatini namoyon etish uchun maydon topadi.

Olim ilmiy izlanishiga sharoit izlaydi.

Ustoz o‘z mehnatining qadrlanishini kutadi.

Oddiy fuqaro esa ertangi kuniga ishonch bilan qarashni xohlaydi.

Islohotning haqiqiy mezoni ham uning inson hayotida qanday aks etishidir. Davlat yaratib berayotgan imkoniyatlarni real natijaga aylantirish har birimizning burchimiz.

TIL — TAFAKKUR MAYDONI

Filolog sifatida men uchun bu masalaning eng muhim nuqtalaridan biri ona tilidir.

Til faqat aloqa vositasi emas. U xalqning tarixiy xotirasi, dunyoni idrok etish tarzi va tafakkur mexanizmlarini avloddan avlodga yetkazadigan ulkan ma’naviy hodisadir. Ammo til faqat o‘tmishni saqlab qolmasligi kerak. U kelajakni yaratadigan vositaga ham aylanishi zarur.

O‘zbek tili ilm-fan, oliy ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, raqamli kommunikatsiya va sun’iy intellekt davrining faol tiliga aylanishi kerak. Shuning uchun ona tilini rivojlantirish faqat til masalasi emas. Bu milliy tafakkurning intellektual mustaqilligi masalasidir.

O‘zbek tilida qancha yangi ilmiy bilim yaratilmoqda? Zamonaviy tushunchalarni qanchalik aniq ifodalay olyapmiz? Elektron lug‘atlar, raqamli resurslar va sun’iy intellekt tizimlarida tilimizning imkoniyatlari qay darajada kengaymoqda?

Kelajakdagi til siyosati ana shu savollarga ham javob berishi kerak.

RENESSANS NIMADAN BOSHLANADI?

Bugun «milliy tafakkur renessansi» haqida gapirish oson. Ammo renessansni so‘zdan voqelikka aylantirish qiyin.

Renessans — fikrning uyg‘onishi. Tayyor xulosani takrorlamaslik. Savol bera olish. Izlanishdan qo‘rqmaslik. Yangilik yaratishga intilish. O‘zligini saqlagan holda dunyo bilan teng fikrlash va boshqalar.

Biz buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy nomlari milliy g‘ururimizning ajralmas qismi. Ammo ular bilan faxrlanishning eng munosib shakli — ilmiy va tafakkuriy jasoratni davom ettirishdir.

Buyuk tarix bizga tayyor kelajak bermaydi. U bizdan buyuk kelajak yaratishni talab qiladi.

ENG KATTA MEROS

Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan o‘zimga ham, barcha yurtdoshlarimizga ham bitta savolni berishni istardim: biz kelajak avlodga nima qoldiramiz? Faqat obod shaharlar va zamonaviy inshootlarmi? Faqat moddiy boyliklarmi?

Yo‘q. Eng katta meros — mustaqil tafakkur. Ilmga hurmat. Ona tiliga ehtirom. Tarixiy xotira. Halol mehnat. Vatanga daxldorlik. O‘z kuchiga ishonch. Chunki texnologiya yangilanadi, iqtisodiy sharoit o‘zgaradi, binolar qayta quriladi. Ammo tafakkuri yuksak xalq har qanday tarixiy burilishda o‘z yo‘lini topa oladi.

Shuning uchun bugungi vazifamiz aniq: siyosiy mustaqillikni — tafakkur mustaqilligi bilan, iqtisodiy taraqqiyotni — ilm bilan, milliy o‘zlikni — ona tili bilan, kelajakni esa ma’rifat bilan mustahkamlashdir.

Ibodulla MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor.

O‘zlikni anglash



Mehnat va kadrlar siyosati: taraqqiyotga xizmat qilayotgan ISLOHOTLAR

Har qanday islohotning natijasi, avvalo, uni amalga oshiradigan insonlarga bog‘liq. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida bilimli, tashabbuskor, mas’uliyatli va xalq bilan ishlay oladigan kadrlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ilgari asosan tajriba va ma’muriy yondashuv ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, bugun lavozimga nomzodning bilimi, kasbiy kompetensiyasi, ishchanlik qobiliyati, tashabbuskorligi va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalariga katta ahamiyat berilmoqda. Ochiq tanlovlar, malaka talablari va shaffof baholash mexanizmlarining joriy etilishi kadrlar siyosatida yangi davrni boshlab berdi.



Ayniqsa, davlat boshqaruvida ishlaydigan xodimning bilimli, halol, tashabbuskor va mas’uliyatli bo‘lishi juda muhim. Chunki davlat xizmatchisi davlat bilan fuqaro o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi bo‘g‘inlardan biridir.

Shuning uchun bugun kadrlarni tanlashda yangi yondashuv shakllanmoqda. Lavozimga nomzodning tanish-bilishi yoki qayerda ishlaganidan ko‘ra, uning bilimi, qobiliyati, tajribasi va natija ko‘rsata olishiga ko‘proq e’tibor berilmoqda.

Ochiq tanlovlar, zamonaviy baholash usullari va kasbiy talablarning kuchaytirilishi kadrlar siyosatida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bunda asosiy maqsad bitta: munosib insonni munosib lavozimga qo‘yish. Bu tamoyil dunyoda o‘zini oqlagan.

Masalan, Singapur tajribasiga nazar tashlasak, mamlakat taraqqiyotida bilimli va professional kadrlar muhim o‘rin tutganini ko‘ramiz. Davlat xizmatida insonning qobiliyati, bilimi va ish natijasiga katta ahamiyat beriladi.

Germaniyada esa yoshlarni kasbga tayyorlashda ta’lim va ishlab chiqarish bir-biri bilan yaqin hamkorlik qiladi. Yoshlar o‘qish bilan birga amaliyotda ham tajriba orttiradi. Bu ularning ishga tayyor mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi.

Janubiy Koreya tajribasi ham e’tiborga loyiq. Bu mamlakat qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan yuksalishida ta’lim, bilim va malakali kadrlarga katta e’tibor qaratdi.

Bugun davlat fuqarolik xizmatida meritokratiya, ochiqlik va professionallik tamoyillarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Samarqand shahar hokimligi tizimida ham kadrlar bilan ishlashga ana shu nuqtayi nazardan yondashilmoqda. Kadrlarni tanlashda lavozimning mohiyati va unga qo‘yiladigan talablar aniq belgilanishi, nomzodlarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari xolis baholanishi muhim. Shu bilan birga, xizmatchilarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish va boshqaruv madaniyatini yuksaltirish doimiy vazifaga aylanmoqda.

Ayniqsa, davlat xizmatchisi uchun zamonaviy texnologiyalarni bilish, odamlar bilan to‘g‘ri muloqot qilish, muammoni tez anglash va unga yechim topish, tashabbus ko‘rsatish kabi sifatlar tobora muhim bo‘lib bormoqda. Shu sababli xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga doimiy e’tibor qaratish zarur.

Kadrlar bilan ishlashda biz uchun yana bir muhim jihat bor. Lavozimga tanlangan har bir inson oddiy xodim emas.

U odamlar bilan muloqot qiladi. Fuqarolarning muammosini eshitadi. Davlat qarorlarini hayotga tatbiq etadi. Shuning uchun uning bilimi va madaniyati bilan birga, insonlarga munosabati ham juda muhim.

Agar bir fuqaroning muammosi o‘z vaqtida hal qilinsa, bu uning davlatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Agar davlat idorasiga murojaat qilgan inson o‘zini hurmat qilinganini his qilsa, bu ham islohotlarning amaliy natijasidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kadrlar siyosati faqat xodim tanlash bilan cheklanmaydi. Bu insonga ishonch bildirish, unga imkoniyat berish va uning salohiyatidan jamiyat manfaati yo‘lida samarali foydalanish jarayonidir.

Bilimli inson yangi g‘oya yaratadi. Mehnatkash inson oilasini farovon qiladi. Mas’uliyatli kadr davlat xizmati sifatini oshiradi. Adolatli rahbar odamlarning ishonchini qozonadi. Shunday ekan, mehnat va kadrlar siyosatidagi har bir islohotning markazida inson manfaati turishi kerak.

Akbar QODIROV,
Samarqand shahar hokimligi
tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.

Imkoniyat, matonat va natija

Besh tashabbus paralimpiadasining respublika bosqichida viloyatimiz sportchilari 3 ta oltin, 7 ta kumush va 1 ta bronza medal bilan respublikada ikkinchi o‘rinni egalladi. Shuningdek, sportchilarimiz O‘zbekiston kubogi va chempionatlarida 32 ta oltin, 40 ta kumush va 47 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, viloyatimiz sharafini munosib himoya qilishdi.



Xalqaro maydonlarda ham parasportchilarimiz munosib ishtirok etmoqda. Xususan, maxsus olimpiada sport turlari bo‘yicha o‘ndan ortiq sport turi bo‘yicha 20 nafarga yaqin vakilimiz shohsupaga ko‘tarildi. Ayniqsa, para dzyudo bo‘yicha Uljon Amiriyevaning jahon chempionati g‘olibi bo‘lgani eng katta yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. Uning “Yilning eng yaxshi ayol paralimpiyachisi” deb e’tirof etilishi nogironligi bo‘lgan yoshlarni ommaviy sportga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini berayotganini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi viloyat hududiy boshqarmasi tashabbusi bilan viloyatdagi 21 ta sport maktabi, 4 ta ixtisoslashtirilgan sport muassasasi hamda 2 ta Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan sportchilar uchun mashg‘ulot bazalarida barcha sharoit yaratilgan. O‘tgan yil besh ming nafardan ziyod nogironligi bo‘lgan shaxslar ommaviy sportga jalb qilingan bo‘lsa, shu yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 6724 nafarni tashkil etishi kutilmoqda. Shuningdek, yil davomida ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi maxsus ta’lim muassasalari pedagog va trenerlari adaptiv sport bo‘yicha malaka oshiradi. Bu esa muassasalarda yangi sport guruhlarini tashkil etish va yana yuzlab bolalarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, viloyatdagi umumta’lim maktablari sport klublarida tashkil etilgan 274 ta adaptiv sport guruhi faoliyati yanada kengaytirilib, ularga mahallalarda istiqomat qiluvchi nogironligi bo‘lgan shaxslar ham jalb etiladi.

Oldinda esa yanada muhim vazifalar turibdi. «Adaptiv sport festivali», mamlakatimizda ilk bor o‘tkaziladigan «Prezident paralimpiadasi» hamda yil davomida tashkil etiladigan ommaviy tadbirlarda 8834 nafar nogironligi bo‘lgan shaxsni qamrab olish rejalashtirilgan. Bu o‘tgan yilga nisbatan 26 foiz o‘sishni anglatadi.

Adaptiv sport bugun nafaqat musobaqalar, balki yoshlar taqdiri, uning hayotga qaytishi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi va yangi orzularini ro‘yobga chiqarish vositasiga aylanmoqda. Viloyatimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qilib, har bir inson uchun teng imkoniyatlar yaratish yo‘lida muhim qadam bo‘lmoqda.

Iroda MURTOZAYEVA,
adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi viloyat hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetiga O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qitish bo‘yicha 2027-yil uchun ajratilgan

QABUL KVOTALARI

T/r	Ixtisoslik shifri va nomi	Doktoran-tura	Tayanch doktoran-tura	Maqsadli doktoran-tura	Stajyor-tadqiqot-chilik
	Jami	**10**	**71**	**1**	**9**
1	01.01.01 – Matematik analiz*	1	2		
2	01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika*	1	2		
3	01.02.01 – Nazariy mexanika*		1		
4	01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi		1		
5	01.03.01 – Astronomiya		1		
6	01.04.02 – Nazariy fizika*		2		
7	01.04.05 – Optika*	1	2		
8	01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi*		1		
9	01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashtiruvchi texnika*		1		1
10	01.04.09 – Magnit hodisalari fizikasi*		1		
11	01.04.11 – Lazer fizikasi*		1		1
12	02.00.01 – Noorganik kimyo*		1		
13	02.00.02 – Analitik kimyo*	1	1		
14	02.00.03 – Organik kimyo*	1	2		
15	02.00.04 – Fizik kimyo*	1	2		
16	02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya*		2		
17	03.00.05 – Botanika*	1	3		
18	03.00.06 – Zoologiya*		1		
19	03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi*		1		
20	03.00.08 – Odam va hayvonlar fiziologiyasi*		1		
21	03.00.09 – Umumiy genetika*		2		
22	03.00.10 – Ekologiya*		1		
23	03.00.12 – Biotexnologiya*		2		
24	03.00.13 – Tuproqshunoslik*		1		1
25	05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash*		1		
26	05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari*		2		1
27	05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui*		1		
28	05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt*	1	2		
29	05.09.02 – Geotexnika*		1		1
30	06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik*		1		
31	06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika*		1		
32	06.01.04 – Agrokimyo*		1		1
33	06.01.06 – Sabzavotchilik*		1		
34	06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik*		1		1
35	06.01.08 – O‘simlikshunoslik*		1		
36	06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish*		1		1
37	07.00.01 – O‘zbekiston tarixi		1		
38	07.00.03 – Jahon tarixi		1		
39	07.00.06 – Arxeologiya		1		
40	07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari		1		
41	08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti		1		
42	08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti		1		
43	09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq		1		
44	09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (nomi)		1		
45	10.00.01 – O‘zbek tili		1		
46	10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti		1		
47	10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti		1		
48	10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik		1		
49	10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik		1		
50	10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon		1		
51	11.00.01 – Tabiiy geografiya	1	1		
52	11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya	1	1		
53	11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari.Gidrokimyo*		1		
54	11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish*		1	1	1
55	12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi		1		
56	12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi		1		
57	19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya		1		
58	22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi		1		

Izoh: * ushbu ixtisosliklar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 1-iyuldagi “Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 267-son buyrug‘iga muvofiq ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklarga talabgorlarni qabul qilish kirish imtihoni o‘rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida amalga oshiriladi.

Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Qisqacha biografik ma’lumotnoma (obyektivka – 3.5 shakl).
2. Oliy ta’lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki oliy ma’lumot (mutaxassislik dasturlari bo‘yicha) to‘g‘risidagi diplom nusxasi.
3. Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha ikkitadan kam bo‘lmagan ilmiy ishlar to‘plamlariga kiritilgan ma’ruza tezislari).
4. Xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat (tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlar uchun).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar (mavjud bo‘lsa).

Zaruratga ko‘ra qo‘shimcha hujjatlar talab etilishi mumkin.

Doktoranturada o‘qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Qisqacha biografik ma’lumotnoma (obyektivka – 3.5 shakl).
2. Oliy ma’lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi.
3. Nashr etilgan ilmiy ishlar nusxalari (dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo‘lgan, ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqola hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy ishlar to‘plamlarida kamida ikkita tezis).
4. Xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat.

Zaruratga ko‘ra qo‘shimcha hujjatlar talab etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-81-son farmoni 4-bandiga muvofiq xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlar quyidagi darajalarda talab etiladi:

- xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha – kamida C1 darajasida;
- gumanitar, biologik va turdosh fanlar, matematika va statistika, biznes va boshqaruv, huquq, xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar, jurnalistika va axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sohalari bo‘yicha – kamida B2 darajasida;
- boshqa ta’lim sohalari hamda madaniyat va sport mutaxassisliklari (ixtisosliklari) bo‘yicha – kamida B1 darajasida.

Hujjatlar 2026-yil 15-sentabrdan 15-oktabrga qadar oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (**https://daraja.ilmiy.uz**) orqali qabul qilinadi.

Kirish imtihonlari va suhbatlar dasturlari hamda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotiga qo‘yiladigan talablar universitetning rasmiy veb sayti: (**https://www.samdu.uz/uz/pages/Doktorantura**)da e’lon qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash va talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish bo‘limi.
Murojaat uchun telefon raqamlari:
+99866-240-38-47, +99891-557-77-44.

KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMLARIGA

TANLOV E’LON QILADI

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 2026-2027-o‘quv yilida quyidagi kafedralarga kafedra mudiri lavozimlariga tanlov e’lon qiladi:

– Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri;
– Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi mudiri;
– O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri.

Tanlovda tegishli mutaxassislik bo‘yicha ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo‘lgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Talab etiladigan hujjatlar:

– rektor nomiga ariza;
– pasport nusxasi;
– ma’lumotnoma (obyektivka);
– ilmiy va uslubiy ishlar ro‘yxati;
– diplom nusxalari;
– so‘nggi uch yilda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi hujjat nusxasi.

Hujjatlar gazetada e’lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Kattaqo‘rg‘on shahri Amir Temur ko‘chasi, 27-uy.
Telefonlar: +99897-422-34-40, +99890-469-38-30.

YIG‘ILISHDA QATNASHING!

Bulung‘ur tumanidagi “Bulung‘urkinovideo” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2026-yil 4-sentabr kuni soat 09:30 da jamiyat binosida bo‘lib o‘tadi.

KUN TARTIBIDA:

- jamiyatning kelajakdagi faoliyati bo‘yicha muzokara o‘tkazish.

Yig‘ilishga jamiyatning barcha a’zolari qatnashishlari shart.

Manzil: Bulung‘ur tumani Bulung‘ur shohko‘chasi, 25-uy.

JAMIYAT MA’MURIYATI.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Norbayeva Zaynaboyga (2021-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko‘chasi, 1-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Qodirov G`ulom Bahramovichga (2025-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Sattorova Malika Saydulloyevnaga (2021-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Kabilov Xolmamatga (2020-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O‘rtashiq mahallasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xo‘jamqulov Husan O‘rinboyevich notarial idorasida marhum Kuvandikov Olimjon Xolboyevichga (2024-yil 8-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xo‘jamqulov Husan O‘rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 152-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “SIYOB ALCO MARKET” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311743937) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Vatan tinchligini asrash – barchamizning muqaddas burchimiz

Zarafshon

Mustaqillik – ulug‘ ne’mat, shukr – buyuk mas’uliyat

Alloh taoloning insonlarga bergan ne’matlari behisob. Ana shunday ulug‘ ne’matlardan biri tinchlik va osoyishtalik, erkinlik va mustaqillikdir.

Qur’oni karimda Alloh taolo mo‘minlarni O‘z ne’matlarini doimo yodda tutib, shukr qilishga chaqiradi. "Moida" surasining 11-oyatida shunday marhamat qilinadi: “Ey mo‘minlar, Allohning sizlarga bergan ne’matini – bir qavm sizlarga qo‘l ko‘tarishni (ya’ni, halok qilishni) qasd qilgan paytida ularning qo‘llarini sizlardan qaytarganini eslangiz!”

Darhaqiqat, yurtimizning tinchligi, xalqimizning erkin va osuda hayot kechirayotgani katta ne’matdir. Bu ne’matni qadrlash, uni asrash va shukrini ado etish har birimizning vazifamizdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, ilm-fan, ta’lim va ma’naviyat sohalaridagi yangilanishlar xalqimiz hayotida muhim o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Bu ulug‘ ne’matni qadrlash, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish barchamizning ezgu maqsadimiz bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi «Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!» degan ezgu g‘oya asosida keng nishonlanmoqda. Bu qutlug‘ sana biz uchun bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilish, erishilgan yutuqlardan ruhlanib, kelajak maqsadlarimizni belgilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan diniy soha vakillari ham yurt tinchligi, xalq farovonligi, yoshlarni ilm-ma’rifatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash yo‘lida munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Istiqlol bayrami arafasida diniy-ma’rifiy sohada ko‘p yillar samarali mehnat qilgan ulamolar va faxriylarning xizmatlari yuksak e’tirof etilmoqda. Jumladan, Payariq tumanidagi «Imom al-Buxoriy» jome masjidi faxriy imomi Mahmudjon domla Ibodullayevning «Imom Buxoriy» ordeni bilan taqdirlangani Samarqand ahlini quvontirdi.

Ayni kunlarda «Mahalla obodligi va mehr-saxovat oyligi» doirasida ham ezgu ishlar izchil davom etmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalar holidan xabar olinib, ularga oziq-ovqat, dori-darmon, o‘quv qurollari va maktab kiyimlari yetkazib berilmoqda.

Bunday xayrli ishlar xalqimizga xos mehr-oqibat, saxovat va hamjihatlik kabi yuksak qadriyatlarni yanada mustahkamlaydi.

Mustaqillik – bebaho ne’mat. Uni qadrlash, Vatan tinchligini asrash, el-yurt ravnaqi uchun sidqidildan mehnat qilish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Nursultonxon ABDUMANNONOV,
viloyat bosh imom-xatibi vazifasini vaqtincha bajaruvchi.

Ёнимиздаги одамлар

Элига фидокор



Ҳалол меҳнат, Ватанга садоқат ва халққа хизмат инсонни эл-юртга танитади. Бутун меҳнат фаолияти давомида ана шу эзгу тамойилларга содиқ қолган, масъулият ва фидойилик билан хизмат қилган инсонлар сафида Садриддин Аслиддиновнинг ҳам ўрни бор.

Садриддин Аслиддинов 1951 йил 4 сентябрда Самарқанд туманининг Боғимайдон қишлоғида таваллуд топди. Болалигидан илмга чанқоқ, меҳнатсевар ва интизомли бўлди. Дастлаб А.Деҳотий номидаги 25-мактабда таҳсил олди. Кейинчалик Боғибаланд қишлоғидаги 10-ўрта мактабни муваффақиятли тугатиб, Самарқанд давлат университетининг кечки бўлимига ўқишга кирди.

Ўз устида мунтазам ишлашни ҳаёт мезони деб билган Садриддин Аслиддинов кейинчалик ишдан ажралмаган ҳолда Тошкент халқ хўжалиги институтини тамомлади, халқ хўжалигини режалаштириш соҳаси бўйича олий маълумотга эга бўлди. Бу эса унинг бошқарув фаолиятида назарий билим ва амалий тажрибанинг уйғунлашувига хизмат қилди.

Самарқанд тумани маиший хизмат кўрсатиш комбинатида уста ёрдамчиси сифатида иш бошлаган С.Аслиддинов қисқа вақт ичида ўзининг ташаббускорлиги ва ташкилотчилик қобилиятини намоён қилди. Мактабда ёшлар етакчиси, туман ёшлар қўмитасида инструктор ва ташкилий ишлар бўлими мудири, туман ижроия қўмитасида ташкилий-инструкторлик бўлими мудири каби масъул вазифаларда фаолият юритди.

1986 йилда халқ депутатлари В.П.Чкалов номидаги қишлоқ совети ижроия қўмитаси раиси этиб сайланди. Кейинги йилларда Мустақиллик қишлоғи кенгаши раиси, “Қайнама” қишлоқ фуқаролар йиғини раиси, Самарқанд тумани ҳокимлигининг ташкилий-назорат гуруҳи раҳбари вазифаларида меҳнат қилди.

1999-2003 йилларда Ўзбекистон Халқ демократик партияси Самарқанд тумани кенгашининг биринчи котиби, 2003-2006 йилларда эса Ўзбекистон Республикаси Оқсоқоллар кенгаши ва “Маҳалла” жамғармаси туман бўлими раиси сифатида аҳоли фаровонлиги, маҳаллаларда ҳамжиҳатлик муҳитини мустаҳкамлаш ва ижтимоий фаолликни оширишга ҳисса қўшди.

Унинг меҳнат биографиясида касаба уюшмалари тизими алоҳида ўрин тутади. 2006-2013 йилларда Ўзбекистон Агросаноат мажмуи ходимлари касаба уюшмаси вилоят кенгашида ташкилий, маданий-маърифий ва спорт ишлари бўлими мудири, кейинчалик кенгаш раиси ўринбосари сифатида фаолият юритди.

Бу йилларда касаба уюшмаларининг ташкилий салоҳиятини мустаҳкамлаш, бошланғич ташкилотлар фаолиятини такомиллаштириш, меҳнаткашларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, маданий-маърифий тадбирлар ҳамда оммавий спорт ҳаракатини ривожлантиришга қаратилган қатор ташаббусларни илгари сурди. Унинг талабчанлиги, адолатпарварлиги, инсонларга ҳурмат билан муносабатда бўлиши ҳамкасблари ва кенг жамоатчиликнинг эътирофига сазовор бўлди.

Кўп йиллик самарали меҳнати давлат ва жамоатчилик томонидан муносиб тақдирланди. У “Халқ маорифи аълочиси”, Республика касаба уюшмалари Федерациясининг “Эҳтиром”, “Меҳнат фахрийси” нишонларига эга бўлди. Шунингдек, беш чақириқ давомида халқ депутатлари Самарқанд тумани Кенгаши депутати сифатида халқ ишончини қозонди.

Бугун С.Аслиддинов пенсияда бўлишига қарамай, ҳаётий тажрибаси, оқилона маслаҳатлари ва эзгу маслаклари билан ёшлар тарбияси, жамоатчилик ишлари ва касаба уюшмалари фаолиятига муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Унинг энг катта бойлиги — аҳил оиласи. Турмуш ўртоғи Мавлуда Саллоҳиддинова билан бирга фарзандларини муносиб тарбиялаб, тўрт нафар фарзанд, ўн нафар невара ва эваралар меҳридан баҳраманд бўлиб келмоқда.

Садриддин Аслиддинов қутлуғ 75 ёшни қарши олмоқда. Устозни ушбу табаррук ёш билан қутлаб, мустаҳкам соғлик, узоқ умр, хонадонига файзу барака тилаймиз!

Расул СУЮНОВ,
Ўзбекистон агросаноат мажмуи ходимлари касаба уюшмаси республика кенгашининг вилоят бўйича масъул ташкилотчиси.

Alvido orzular



Turmush chorrahalarida

Asror pul topish, orzularini ro‘yobga chiqarish ilinjida musofirchilikda ne-ne azob-uqubatlarni boshdan kechirmadi, deysiz. Yangi kelin bo‘lib tushgan Mastura avvaliga uning qarorini eshitib, qarshilik qildi. Keyin hali uylanadigan qaynukasi borligini o‘ylab, tezroq mustaqil uy-joy qilib chiqib ketish lozimligini angladi. Asrorning chetda ishlab kelishiga rozi bo‘ldi.

— O‘zingizni ehtiyot qiling, sog‘-omon qayting!

— Xavotir olma, hali hammasi yaxshi bo‘ladi, uy-joy quramiz, mashina olamiz, baxtli yashaymiz. Men senga topgan pulimni yuborib turaman. Sen ro‘zg‘ordan ortganini yig‘ib qo‘yasan.

— Xo‘p bo‘ladi!

Oradan vaqt o‘tdi. Asror xotiniga yuborgan pullarini chamalab ko‘rdi: «Yangi uy-joy qurishga yetadi. Endi qaytsam ham bo‘ladi».

Mastura erini ochilib-sochilib kutib oldi.

— Yaxshi keldingizmi?

— Ha, yaxshi, shu joyni bitkazib olay, keyin yana bir-ikki yil borib kelaman, mashina olamiz.

— Voy, qanday zo‘r, bizning mashinamiz ham bo‘ladi, — Mastura yosh boladay chapak chalib quvondi.

— Yig‘gan pullaringni olib kel-chi!

— Xo‘p bo‘ladi! — Mastura sandiqdan ro‘molchaga o‘ralgan bir dasta pulni Asrorning oldiga qo‘ydi.

— Mana!

«Go‘zal, sadoqatli xotinim borda! Ilohim, ko‘z tegmasin!» Asror kecha e’tibor bermagan ekan, Mastura to‘lishib, yanada chiroyli bo‘lib ketibdi.

Asror pulni sanab ko‘rdi. Uning chamasidan ancha kam.

— Bori shumi? Juda oz-ku?! Kamida yigirma ming dollar bo‘lishi kerak edi!

— Bilasiz... ukangiz, singlingiz ishlamaydi, ularni ham boqishimiz kerak, ro‘zg‘orga ozmuncha pul kerakmi? — Mastura kalovlanib, ko‘zlarini olib qochdi.

— Xo‘p, ro‘zg‘orga uch ming dollar ketgandir, besh ming dollar ketgandir, qolgani qani? Chiq, topib kel! Men kelgunimcha pul shu yerda bo‘lsin!

— Uka, oilang buzilib ketmasin deb senga aytmagandim, — dedi opasi. — Kelin sen yuborgan pullarni olish uchun bankka borganida, erlari Rossiyadan yuborgan pullarni olish uchun boradigan bir guruh ayollarga qo‘shilib yurish-turishi o‘zgarib qoldi. Ertalab yasanib-tusanib chiqib ketadi. Allamahalda shirakayf holda qaytadi. Allaqanday shubhali mashinalar tashlab ketadi. Tilla taqinchoqlar, qimmatbaho liboslar bilan maqtanadi.

— Shunaqa deng?

Asror Mastura bilan sevishib turmush qurgan, uning xiyonat ko‘chasiga kirishini xayoliga ham keltirmagandi. Allamahalda, mast holda uyga qaytdi. Zo‘rg‘a oyoqda turardi. Asrorni sovurilgan pullar emas, muqaddas oilaga, muhabbatiga xiyonat esdan og‘dirgandi.

Uning vajohatini ko‘rib, Mastura qo‘rqib ketdi:

— Keldingizmi?

— Ha, keldim. Xo‘sh, pulni topib keldingmi? Qaysi jazmaningga olib borib bergansan? Gapir! — Asror Masturaga tashlanib, uni bo‘g‘a boshladi. — O‘ldiraman...

— Voy dod, yordam!.. — Mastura bo‘shashib, chaqirig‘i bo‘g‘zida qoldi. Asrorning oyog‘i ostiga yiqildi. Asror uning ustidan xatlab o‘tdi-da: «O‘lib qolgan bo‘lsa-ya? Qochish kerak!»

— Asror, senmisan, qachon kelding? — vagonchadan chiqqan Mansur aka uning tez qaytganiga hayron bo‘ldi. — Yurtimiz tinchmi? Ahvoling juda g‘alati, sog‘lig‘ing yaxshimi?

— Mansur aka, men xotinimni o‘ldirib qo‘ydim.

— Nima deyapsan? Nega xotiningni o‘ldirasan?

— Mast edim, jahl ustida o‘zimni tutolmadim.

— Qani tur, ichkariga kir, yuvinib, o‘zingni o‘nglab ol. Biz ishga ketyapmiz, kechqurun gaplashamiz.

— Asror! O‘zingga keldingmi, birodar? — ishdan qaytgan Mansur aka vagonchaga ko‘z yugurtirdi.

— Asror yo‘q, — dedi ovqatga unnayotgan Mahmud. — Nima ayb ish qilgan, bilmadim, uni olib ketishdi.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

Bugunning gapi

BIR QO‘NG‘IROQ — BIR TUZOQ



RAQAMLI MAYDONDA HUSHYORLIK NEGA BUGUN HAR QACHONGIDAN MUHIM?

Bugun telefon raqami ortida kim turganini bilish qiyin. Ammo bir narsa aniq: notanish qo‘ng‘iroqqa ishonib aytilgan bitta ma’lumot ham insonni katta muammoga duch qilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar hayotimizni yengillashtirayotgan bir paytda, ulardan g‘arazli maqsadda foydalanayotganlar ham ko‘paymoqda.

Yaqinda dugonamga notanish raqamdan qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Qo‘ng‘iroq qilgan kishi o‘zini “Uzum market” xodimi sifatida tanishtirib, uning yutuqli o‘yinda sovg‘a yutganini aytgan. Sovg‘ani yaqin filialga yetkazib berish uchun manzil va pasport ma’lumotlarini so‘ragan. Suhbatni onasi eshitib qolib, darhol qiziga tanbeh bergan: “Notanish odamga nega pasport ma’lumotlaringni berasan? Telefonni o‘chir!” Ushbu voqea raqamli firibgarlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga e’tibor qaratishga undaydi.

ISHONCHDAN FOYDALANAYOTGANLAR

Bugun raqamli firibgarlikning eng xavfli tomoni shundaki, firibgarlar o‘zining ochiqdan-ochiq g‘arazli niyatini sezdirmaydi. Aksincha, ular ishonch uyg‘otadigan qiyofaga kiradi — bank xodimi, savdo tashkiloti vakili, davlat idorasi mutaxassisi, operator yoki kuryer... Ularning maqsadi esa bitta — insonni ishontirish va kerakli ma’lumotni qo‘lga kiritish.

Ba’zan buning uchun “Siz yutuq sohibi bo‘ldingiz”, degan shirin gap yetarli bo‘ladi. Ba’zan esa “Kartangiz bloklanadi”, “Hisobingizda shubhali operatsiya aniqlandi”, “Tasdiqlash kodini ayting”, degan iboralar ishga solinadi. Shu tariqa insonning eng kuchli his-tuyg‘ulari — qiziqish, qo‘rquv va shoshilishdan unga qarshi foydalaniladi.

RAQAMLI MAYDONDA BARQARORLIK NIMA?

Mazkur muammoning dolzarbligi Samarqand shahrida tashkil etilgan seminar-treningda ham alohida ta’kidlandi. “Yoshlar o‘rtasida radikalizm va terrorizmning oldini olishda ijodkor yoshlar salohiyatini oshirish” mavzusidagi seminarda bugungi raqamli muhitda insonning axborot xavfsizligi, turli tahdidlarni anglash va ularga qarshi munosabat shakllantirish muhimligi haqida aytib o‘tildi.

— Avvalo, o‘smirlarda mediasavodxonlikni shakllantirish, internetdagi hamma ma’lumot ham rost emasligini, turli “chellenj” yoki xavfli fleshmoblar ortida aslida xavf-xatarlar yashiringan bo‘lishi mumkinligini tushuntirish kerak, — deydi “Aqua Trio” IT kompaniyasi rahbari, trener Artur Kan. — Shu bilan birga, bolalarga virtual dunyoda begonalar bilan muloqotga kirishmasligini, ulardan fayl yoki havola (link) qabul qilmasligini tushuntirish muhim. Ekran vaqti va balansni ham unutmaslik kerak. Gadjetlardan foydalanish vaqti bo‘yicha aniq qoidalar (masalan, ovqatlanish vaqtida yoki uxlashdan 1 soat oldin telefon ishlatmaslik) belgilanishi va bu qoidalarga ota-onalarning o‘zi ham amal qilib, namuna bo‘lishi lozim. Imkon bo‘lsa, bolalarga rasmiy antivirus dasturlarini o‘rnatib berish va “Ota-ona nazorati” ilovalarini sozlash, yosh chekloviga ega bo‘lmagan kontentni filtrlash hamda ilovalar ichidagi xaridlarni cheklab qo‘yish zarur.

SHAXSIY MA’LUMOTLARIMNI BERMAYMAN

Ko‘pincha odamlar telefon orqali murojaat qilgan kishining kimligini tekshirmaydi. “Balki, haqiqiy xodimdir”, degan o‘y bilan uning so‘ragan ma’lumotlarini berib yuboradi. Aslida esa ehtiyotkor bo‘lish ishonchsizlik emas, balki mas’uliyat.

Eng muhimi, pasport ma’lumotlari, bank kartasi rekvizitlari, SMS-kodlar, parol va boshqa maxfiy ma’lumotlarni telefon orqali begonaga bermaslik kerak. Ayniqsa, “Tezda ayting”, “Hozir amalga oshiring”, “Aks holda yutug‘ingiz bekor bo‘ladi”, “Kartangiz yopiladi” kabi shoshilinch qaror qabul qilishga majburlaydigan gaplarga ishonmaslik lozim.

BUGUNGI EHTIYOT ERTANGI TASHVISHDAN ASRAYDI

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi. Endi undan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishni o‘rganishimiz kerak. Yoshlarga, yaqinlarimizga ham bu haqda tushuntirish zarur. Chunki raqamli firibgarlar insonning yoshi, kasbi yoki ijtimoiy mavqeini tanlamaydi.

Bugun boshqaga bo‘lgan shubhali qo‘ng‘iroq ertaga bizga ham kelishi mumkin. Shuning uchun har birimizda oddiy, ammo muhim qoida shakllanishi kerak. Ba’zan katta xavfdan himoyalanish uchun murakkab texnologiya emas, oddiy hushyorlikning o‘zi kifoya. Raqamli dunyoda xavfsizlik ekranning narigi tomonida emas, avvalo insonning ehtiyotkorligida.

Shu masalalar bo‘yicha Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamkorligida samarqandlik jurnalist va blogerlar uchun tashkil etilgan “O‘zbekistonda radikallashuv va terrorizmning oldini olishda ijodkor yoshlar salohiyatini oshirish” mavzusidagi treningda yangi bilimlarga ega bo‘ldik. Shuningdek, axborot xavfsizligi, radikallashuv ko‘rinishlari bo‘yicha ham ma’lumotlar berildi. Unda O‘zbekiston Milliy universiteti professori Yoqutxon Mamatova, “Web Factor Media” MChJ direktori Nozima Toshpo‘latova, “O‘zbekiston matbuoti” jurnali bosh muharriri hamda “Aqua Trio” IT kompaniyasi rahbari Artur Kan ekspert va trener sifatida ishtirok etib, o‘z bilim va tajribalari bilan o‘rtoqlashdi.

Munisa SHAMSIYEVA.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 293 nusxada chop etildi. Buyurtma 341. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Gazetamizning ayrim materiallariga surat tanlashda sun’iy intellekt imkoniyatidan foydalaniladi

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: G.MO‘MINOVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda